

ABU RAYXON BERUNIYNING TA'LIMIY-AXLOQIY QARASHLARI

To'qliyeva Matluba Boqiyevna

Xalqaro innovatsion universiteti Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Abu Rayhon Beruniy ilmiy bilimlarni egallash usullari va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari bo'yicha ilg'or qarashlarni ilgari surgan. Uning fikricha, hozirgi davr ta'limida ham quyidagi tamoyillar dolzarb bo'lib qoladi: o'quvchini dars jarayonida zeriktirmaslik, bir xil ma'lumot yoki fan mavzusini doimiy takrorlamaslik, bilimlarni uzviy va izchil tarzda taqdim etish, taqqoslash va tahlil qobiliyatini rivojlantirish, ma'lumdan noma'lumga, yaqin masofadan uzoqqa, sodda tushunchalardan murakkab masalalarga o'tish, muntazam takrorlash va yangi mavzularni qiziqarli hamda ko'rgazmali usullar bilan bayon etish zarur.

Kalit so'zlar: Munajjimlik san'atidan, Geodeziya, olijanoblik, mineralogiya, astronomiya, axloq.

Аннотация: Абу Райхан Беруни выдвинул прогрессивные взгляды на методы приобретения научных знаний и способы их применения на практике. По его мнению, в современном образовании остаются актуальными следующие принципы: не утомлять ученика во время урока, не повторять постоянно одну и ту же информацию или тему, представлять знания последовательно и непротиворечиво, развивать способность к сравнению и анализу, переходить от известного к неизвестному, от близкого к далекому, от простых понятий к сложным вопросам, регулярно повторять и представлять новые темы интересным и наглядным образом.

Ключевые слова: Искусство астрологии, Геодезия, знать, Минералогия, астрономия, этика.

Abstract: Abu Rayhan Beruni put forward progressive views on the methods of acquiring scientific knowledge and ways of applying them in practice. In his opinion, the following principles remain relevant in modern education: not to bore the student during the lesson, not to constantly repeat the same information or subject, to present knowledge in a coherent and consistent manner, to develop the ability to compare and analyze, to move from known to unknown, from close to far, from simple concepts to complex issues, to regularly repeat and present new topics in interesting and demonstrative ways.

Keywords: From the art of astrology, Geodesy, nobility, Mineralogy, astronomy, ethics.

Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 362-hijriy yil, ya'ni milodiy 973-yil 4-sentabrda Xorazm viloyatining Qiyot (Kot) shahrida dunyoga kelgan. Boshlang'ich ta'limni mahalliy madaniy va ilmiy muhitda olgan Beruniy, ayni davrning yetuk olimlaridan saboq olish orqali o'zining ilmiy poydevorini mustahkamladi.

Beruniy nafaqat ona tili Xorazm tilini mukammal egalladi, balki arab, sug'd, fors, suryoniy, yunon, ibroniy tillarini chuqur o'rganib, hatto qadimgi hind tili sanskritga ham ega bo'ldi. U yunon klassik faylasuflik an'analari, astronomiya, falsafa, geografiya, botanika,

matematika, geologiya, tarix, etnografiya, filologiya kabi turli fanlar bo'yicha keng qamrovli bilimga ega bo'ldi.

Beruniy 995-yilgacha astronomiya, geografiya va geodeziya masalalarini amaliy jihatdan tadqiq qildi. Aynan shu davrda u Sharqda birinchi bo'lib globus yaratdi va astronomiyaga doir bir qator asarlar yozdi, jumladan: "Kartografiya", "Globus yasash kitobi", "Yerdagi joylarning uzunlik va kengliklarini aniqlash haqida maqola" va boshqa ilmiy ishlar. Yoshligiga qaramay, u 994–995-yillarda Kotda astronomik asboblarni ixtiro qilib, kuzatish ishlarini amalga oshirdi.

1004-yilda Beruniy Xorazm hukmdori Ma'mun II ibn Ma'mun tomonidan Xorazmga chaqiriladi va uning yaqin maslahatchisi sifatida tayinlanadi. Ma'mun davrida Urganch shahrida "Majlisi Ulamo" yoki "Ma'mun akademiyasi" nomi bilan ilmiy markaz tashkil etiladi va u yerda Sharqning yetuk olimlari faoliyat ko'rsatadi.

Beruniy bu davrda kamyob metallar va qimmatbaho toshlar ustida eksperimentlar olib boradi va keyinchalik ularning natijalari asosida "Mineralogiya" asarini yaratadi. 1017–1018-yillarda Movarounnahrda Qoraxoniylar davlati barpo etiladi, Xurosonda esa Mahmud G'aznaviy hukmronligi o'rnatiladi. Qoraxoniylar bilan tuzilgan shartnomaga binoan, Xorazm Mahmud G'aznaviy davlatiga tobe bo'ladi. Shu sababli Beruniy Ma'mun akademiyasidagi olimlar bilan birga G'aznaga olib ketiladi va ijodini davom ettiradi.

Beruniyning yana bir muhim asari "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar" bo'lib, unda u bir qancha fanlar yuzasidan dastlabki ma'lumot va tushunchalarni taqdim etadi. Mahmud G'aznaviy Hindistonga yurishlarining birida Beruniy ham hamroh bo'ladi. Sanskrit tilini bilganligi sababli u hind xalqi madaniyati, adabiyoti va san'ati bilan yaqindan tanishadi va bu mehnatlari natijasida 1030-yilda Sharq va G'arbda keng e'tirof etilgan "Hindiston" asarini yaratadi. Kitobning to'liq nomi "Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi" bo'lib, qulaylik uchun qisqacha "Hindiston" deb ataladi.

Akademik V.R. Rozen bu asarni "Sharq va G'arbnining qadimgi va o'rta asrdagi ilmiy adabiyoti orasida tengi yo'q" deb baholaydi. Hind olimi Hamid Rizo esa shunday deydi: "Hind madaniyatining murakkab masalalarini o'rta asr yoki zamonaviy mualliflardan hech biri Abu Rayhon Beruniydek mukammal tushunmagan. Uning 'Hindiston' asari qadimgi Hind madaniyati va fanining klassik namunasi bo'lib qoladi."

1030-yilda Mahmud G'aznaviy vafot etadi. Uning kichik o'g'li Muhammad voris sifatida taxtga o'tirsa-da, ko'p o'tmay katta o'g'li Mas'ud ukasini taxtdan ag'darib hokimiyatni egallaydi. Shu davrda Kaspiy bo'yi viloyatlarida Qobus ibn Vushmagir yosh olimlarga xayrixohlik ko'rsatadi. Mas'udning "Shamsal-Ma'aliy" (Oliy martabalar quyoshi) laqabli podshohligi davrida Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarini yozib unga taqdim etadi. Bu asar Beruniy nomini Yaqin va O'rta Sharqda mashhur qilgan.

Beruniy astronomiyaga oid "al-Qonun al-Mas'udiy" (Mas'ud qonuni) asarini shoh Mas'udga bag'ishlaydi. Olimlar bu asarni matematika va astronomiya bo'yicha avvalgi barcha asarlardan yuqori qo'yadilar. Arab olimlaridan Yoqutning yozishicha, "Mas'ud qonuni" kitobi matematika va astronomiya bo'yicha ilgari yozilgan barcha kitoblarning izini o'chirib yuborgan.

Beruniy “Saydana” kitobida o‘zining 80 yoshdan oshganligini qayd etadi, shundan kelib chiqib, u taxminan 1050–1051-yillarda vafot etgan deb hisoblanadi. Ba’zi manbalarda esa uning 1048-yil 13-dekabrda G‘azna shahrida vafot etgani ko‘rsatiladi.

Beruniy fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy merosni va bilimga oid boyliklarni chuqur va qunt bilan o‘rganishga talabalari va olimlarga da’vat qiladi. U o‘quvchilarga qalbni yomon illatlardan, insonning o‘zi sezmaydigan zararli odatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, hirs, behuda raqobat, ochko‘zlik va shon-shuhratparastlikdan saqlanish zarurligini ta’kidlaydi.

Olimning axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mineralogiya”, “Kitob as-Saydana”, “al-Qonuni al-Mas’udiy”, “Geodeziya” kabi asarlarida yaqqol ko‘rish mumkin. Beruniy axloqlilikni insonning eng asosiy xususiyati deb bilgan va bu sifat birdaniga shakllanmaydi, balki insonning ijtimoiy muhitdagi muloqoti, jamiyatdagi o‘zaro aloqalari orqali asta-sekin rivojlanadi.

Beruniy axloqiy tarbiyani musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda ta’riflaydi: axloq yomonlik va yaxshilik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi. Uning fikricha, yaxshilik va yomonlik insonning xulq-atvorini belgilovchi mezon bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ta’lim-tarbiyada insonning axloqiy kamolga yetishi markaziy masala hisoblanadi.

Beruniyning pedagogik qarashlarida inson faqat ichki va tashqi jihatdan go‘zal bo‘lsa haqiqiy kamolotga erishishi mumkinligi ta’kidlangan. U ozodlikni olijanoblik bilan tenglashtiradi va shaxs har doim bu tamoyillarga amal qilishi zarurligini bildiradi. Shu bilan birga, inson o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi, har bir yetuk shaxs uchun zarur bo‘lgan sifatlarni shakllantirishda iroda va kuchga ega bo‘lishi lozim, deydi Beruniy. “Mineralogiya” asarida u bu fikrni shunday ifodalaydi:

Bundan tashqari, Beruniy insonni kamolotga yetaklovchi yana bir xislat sifatida olijanoblikni ko‘rsatadi. Olijanoblik, Beruniy nazarida, eng avvalo yaxshilikni anglatadi. Bu tushuncha insonning boshqa insonlarga inson sifatida munosabatini ifodalaydi. Mutafakkir uchun eng muhim masala shundan iboratki, inson kamolotiga yetish jarayonida mehnat va mehnat tarbiyasining roli beqiyosdir. U har bir hunar egasining mehnatini qadrlashga chaqiradi va mehnatni turkumlarga ajratadi. Masalan, og‘ir jismoniy mehnatni bajaruvchi binokorlar, ko‘mir qazuvchilar va boshqa hunarmandlar, shuningdek, ilm ahli bo‘lgan olimlarning mehnatini alohida qayd etadi. Beruniy yosh avlodni mehnatga o‘rgatish metodlarini ham batafsil yoritadi. U bolani eng kichik yoshidan turmush va mehnatga tayyorlashni zarur deb biladi. Mehnat tarbiyasida o‘sha davr pedagogik an‘analariga muvofiq vorislik va merosning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Bu masalani E.To‘raqulov va S.Rahimov o‘zlarining “Abu Rayhon Beruniy ruhiyati va ta’lim-tarbiya haqida” nomli risolalarida keng yoritganlar.

Beruniy “Mineralogiya” asarida faqat qimmatbaho metallar va toshlar haqida emas, balki hunarmandchilik jarayoni, shogird tayyorlash metodikasi va ustalarning amaliy ishlash tajribasini ham keng muhokama qiladi. Bu jihatdan u hozirgi pedagogik terminologiyada aytilgandek, shaxsiy namuna usulini qo‘llagan, ish jarayoni nazariy va amaliy jihatdan bevosita ustaxonada bajarilgan. Shu sababli, shogirdlarning malakali usta bo‘lib yetishishida ushbu metodning ahamiyati beqiyos bo‘lgan.

Shu nuqtai nazardan Beruniy insonning har tomonlama kamolga yetishi uchun ilmi bo'lishi bilan birga, mehnatsevar va hunar egasi bo'lishi shart, deb hisoblaydi. U inson kamolotida uch asosiy omil — irsiyat, muhit va tarbiya — ning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ko'p olimlar o'z davrida inson kamolotini faqat tarbiya bilan bog'ladi, irsiyat va muhit ta'sirini inobatga olmadi. Beruniy esa, zamondoshlari — Forobiy, ibn Sino kabi mutafakkirlar bilan bir qatorda, har uch omilni inson kamolotida muhim deb hisoblagan. Shu bilan birga, u ilm, ma'rifat, san'at va amaliyotning asosiy rolini, shuningdek nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy qonuniyatlarning ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Beruniy nazarida insonning kamolga yetishida eng asosiy omil — ilm-ma'rifatga ega bo'lish va yuksak axloqlilikdir. U ilmiy bilimlarni egallash va tarbiyaviy jarayonni uyg'unlashtirish orqali ta'lim nazariyasida o'ziga xos maktab yaratdi. Yoshlarni tarbiyalashda axloqiy mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, oila tarbiyasi, shaxsiy gigiena, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik tushunchalariga katta ahamiyat bergan. Beruniy axloqlilik belgilarini yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, olijanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat va hunar egallash, poklik va go'zallikka intilish kabi xislatlar bilan bog'lagan va ularni o'z asarlarida ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tushuntirgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid pedagogik qarashlari faqat o'z davri uchun emas, balki bugungi ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Uning o'zi ham haqiqiy komil inson xususiyatlariga ega bo'lganini hayoti, ijodiy faoliyati va yozgan asarlari bilan isbotlab, kelajak avlodlarga boy ma'naviy meros qoldirdi.

Beruniy Sharq Renessansi davrida qomusiy olim sifatida nom qozondi. Mashhur sharqshunos J.Sarton esa, XI asrning birinchi yarmidagi jahon fani tarixini Beruniy davri deb atab, uni o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi sifatida baholaydi. Beruniyning tabiiy va ijtimoiy fanlarni qamrab olgan 150 dan ortiq yirik ilmiy asarlar yaratganligi ham bu bahonning o'rinli ekanligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. 2017.
2. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonkulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi 2010.
3. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. -2001.
4. Axmedova M. E. Pedagogika nazariyasi va tarixi(O'quv qo'llanma) - T.:Tafakkur bo'stoni, 2011.
5. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. - Toshkent Nodirabegim". 2021.
6. To'xtaboyev N., Toshkenboyeva M. – Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: «O'qituvchi», 2020.